

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

“TASDIQLAYMAN”

Farg‘ona jamoat salomatligi

Tibbiyot instituti rektori

A. Sidikov

“ ” 2022-2023 yil



**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI
TIBBIYOT INSTITUTI**

ODOB-AXLOQ KODEKSI

Farg‘ona-2022

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot
institutining 2022-yil ____dagi ____ sonli
buyrug‘iga 1-ilova

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti xodimlarining odob-axloq QOIDALARI

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Odob-axloq qoidalar (keyingi o‘rinlarda “Qoidalar” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi sog‘likni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5590-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016-yil 2-martdagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalar” hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2022-yil 24-martdagi 88-son buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida (keyingi o‘rinlarda “Institut” deb yuritiladi) kasbiy odob-axloqning umumiy tamoyillari, institut xodimlari hamda ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining kasbiy odob-axloqi va hulq-atvorining asosiy qoidalarini belgilaydi.

1.2. Odob-axloq qoidalariga rioya etish institut xodimi va ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining kasbiy faoliyatini, ish va o‘qishdagi hulq-atvorini baholash mezonlaridan biri hisoblanadi.

1.3. Mazkur Qoidaga rioya qilish institutda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar va ta‘lim jarayoni ishtirokchilari uchun majburiy hisoblanadi.

1.4. Institut xodimlari va ta‘lim jarayoni ishtirokchilari mehnat jamoasining a‘zolari va ish jarayonida aloqa qiladigan boshqa shaxslar bilan xushfe‘l munosabatda bo‘lishi va mazkur qoidalariga rioya qilishi shart.

1.5. Ushbu Qoidada kuyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Institut xodimlari - belgilangan yoshga yetgan hamda institut bilan mehnat shartnomasini tuzgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

Ta‘lim jarayoni ishtirokchilari - talabalar (tegishli mutaxassislik bo‘yicha ta‘lim olish uchun institutga belgilangan tartibda qabul qilingan hamda ta‘lim va tarbiyani qabul qiluvchi shaxslar), doktorantlar (oliy ta‘lim muassasasiga tayanch doktorantura yoki doktoranturaga belgilangan tartibda qabul qilingan shaxslar), mustaqil izlanuvchilar (oliy ta‘lim muassasasiga mustaqil izlanuvchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxslar)

Korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, huddi shuningdek bunday nafni qonunga hilof ravishda takdim etishi;

Manfaatlar to'qnashuvi - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning xuquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

II. Qoidaning maqsad va vazifalari

2.1. Ushbu Qoidaning maqsadi institut xodimlari va ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish, ular sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, rahbar va xodimlarini yuksak huquqiy ong, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qonunlari va boshqa normativ-huquqiy xujjatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat'iy rioya qilishini mutaxassislar ruhiga singdirishni ta'minlash.

2.2. Xodimlarning xizmatdagi hulq-atvorini baholash, shuningdek, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, jamiyat, davlat va oila oldida o'z mas'uliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri anglaydigan, vatanparvar va xalqparvar, tashabbuskor. zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak insoniy fazilatlarni o'zida namoyon etgan irodasi baquvvat, ongi butun va vijdoni uyg'oq mutaxassislarni tarbiyalash Qoidaning asosiy vazifalari hisoblanadi.

2.3. Qoida xodimlarining kasb etikasini, shuningdek tibbiyot deontologiyasi mukammal egallab, unga sitqidildan amal qilishini ko'zda tutadi.

III. Xodimlarning xizmatdagi hulq-atvorining asosiy tamoyillari va qoidalari

3.1. Xodimlari o'z kasbiy faoliyatini quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiradi:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoiylik;
- davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;
- adolatlilik, halollik va holislik;
- manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;
- profilaktik chora-tadbirlarining ustuvorligi.

3.2. Xodimlari quyidagilarga majbur:

xizmat vazifalarini bajarishda qonun talablari va mazkur Qoidada o'rnatilgan normalarga qat'iy rioya etish;

o'z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;

yuqori turuvchi davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qaror (topshiriq)larini o'z vaqtida va sifatli bajarish;

o'z faoliyatini qonun xujjatlarida va ichki xujjatlarida belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;

o'z xizmat vazifalarini bajarishda biror-bir shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta'siridan mustaqil

bo'lish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish hamda kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik;

o'z xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarining ta'siri bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlarga barham berish, idoraviy xujjatlarda belgilangan ichki-tartib qoidalarga rioya qilish, o'z xizmat vazifalarini lavozim vakolatlari doirasida og'ishmay bajarish;

xizmat vazifalarini vijdonan bajarishda shubxa paydo qilishi mumkin bo'lgan hulq-atvordan o'zini tiyish, shuningdek o'z obro'siga yoki institutning nufuziga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga yo'l ko'ymaslik;

xizmat mavqeidan boshqalarning faoliyatiga noqonuniy ta'sir ko'rsatish uchun foydalanmaslik;

ishda xabarlar va xizmat axborotlarini taqdim qilishning belgilangan qoidalariga rioya etish.

3.3. Xodimlarga o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslardan biror-bir moddiy boyliklarni olish yoxud boshqacha naf ko'rish taqiqlanadi.

3.4. Xodimlar korrupsiya holatlariga qarshi kurashishi va ularning profilaktikasiga faol ko'maklashishi shart.

3.5. Xodimlari biror-bir shaxslarning ularni huquqbuzarlik sodir etishga og'dirish maqsadida qilgan murojaatlari to'g'risida, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lgan har qanday xolatlar haqida o'z rahbarini yoxud tegishli huquqni muhofaza qilish organlarini habardor qilishi shart.

3.6. Institut rahbariyati shaxslarning qonunchilik buzilishi faktlari to'g'risida murojaat qilganligi munosabati bilan yoki professional faoliyat yuzasidan qilgan tanqidi yoxud bildirgan fikri uchun ishdan bo'shatilishiga yoki boshqacha shaklda ta'qib qilinishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlashi kerak.

3.7. Rahbar o'zi faoliyat ko'rsatayotgan muassasada:
xodimlarga yuqori professionalizm va adolatda o'rnatilgan bo'lishi;
jamoani samarali boshkarishi;
jamoadagi ijobiy ma'naviy-psixologik muhitni shakllanishiga ko'maklashishi;
xodimlardan ularning vakolati doirasidan tashqari topshiriqlarni bajarishni talab qilmasligi;

qonunga hilof xatti-harakatlarni sodir etilishining oldini olishi;
kadrlarni ishga qabul qilish, tanlash va joy-joyiga qo'yishda qarindoshchilik, tanish-bilishchilik kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi holatlarga yo'l qo'ymasligi;

guruxbozlik, mahalliychilik ko'rinishlarining, shuningdek, o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarga shart-sharoitlar yaratmasligi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olishi va ularni tartibga solish yuzasidan tezkor choralar ko'rish;

korrupsiyaning oldini olish choralari ko'rish;

o'ziga ishonib topshirilgan mulk va moddiy mablag'larga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishi va maqsadli ravishda foydalanishi;

o'zi faoliyat ko'rsatayotgan muassasada xodimlarning hulq-atvori qoidalarini buzishga olib kelgan xatti-harakatlarini oldini olish borasida choralarni ko'rishi kerak.

3.8. Xodimlar boshqa davlat tashkilotlari xodimlari bilan xizmat doirasidagi o'zaro samarali hamkorlikka erishish uchun o'zlarining namunali hulq-atvori va mehnatsevarligini namoyon etishi kerak.

3.9. Xodimlar xushmuomala, odobli, e'tiborli, fuqarolar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo'lishi, ularni hurmat qilishi shart.

3.10. Xodimlar o'z faoliyatida ularga bevosita murojaat qilgan har bir fuqaroga nisbatan jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq normalariga qat'iy rioya qilishi (qo'pollik qilmasligi), ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi lozim.

3.11. Xodimlarining tashqi ko'rinishi umum qabul qilingan ish uslubiga mos bo'lishi lozim.

IV. Manfaatlar to'qnashuvi

4.1. Xodimlar o'z faoliyatida manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymasliklari shart.

4.2. Manfaatlar to'qnashuvi hodimlarning shaxsiy manfaatlari ularning o'z xizmat vazifalarini holisona va beg'araz bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarda paydo bo'ladi.

4.3. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda xodimlar o'z rahbarini darhol xabardor qilishlari shart.

4.4. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotni olgan rahbar ushbu holatni bartaraf etish bo'yicha zudlik bilan chora ko'rishi shart.

4.5. Xodimlar o'zlarining xizmat vazifalarini yuqori professional darajada bajarishlari, boshqalarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan faoliyatni amalga oshirmasligi, shuningdek mansab mavqeini suiste'mol qilmasligi kerak.

4.6. Xodimlar har qanday xolatda o'z mavqei va vakolati doirasidan tashqari bo'lgan shaxsiy foydani olishi mumkin emas.

V. Xodimlar va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining muomalasi va yurish-turishiga qo'yiladigan talablar

5.1. Xodimlar va ta'lim jarayoni ishtirokchilari uchun umum e'tirof etilgan ahloqiy qoidalarga muvofiq jiddiy, ishchan va didli, ziyoli shaxs qiyofasini shakllantirish maqsadida korporativ kiyinish uslubi va talablariga amal qiladi.

5.2. Institutda rahbar xodimlar, pedagog, shifokorlar kasbiga mos holda kiyinishlari talab etiladi.

5.2.1. Xodimlar va ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'zini tutish san'ati, muloqot madaniyati va kasbdoshlar o'rtasida hamda bemorlar bilan muloqotda hurmat, mehr-muruvvat ko'rsatishi shart. Bunda professor-o'qituvchi va tyutorlar talabalarga namuna ko'rsatishlari lozim.

5.3. Xodimlar va ta'lim jarayoni ishtirokchilari avvalo yuksak ahloqiy fazilatlarga ega bo'lishi nuqtai nazaridan:

jamoada ma'muriyat (rektor, prorektor, dekan, direktor, kafedra mudiri, bo'lim, boshqarma boshliqlari va ularning o'rinbosarlari hamda ularga tenglashtirilgan rahbar xodimlar)ga nisbatan hurmatda bo'lishi;

jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatda tanqidiy fikrlarni to'g'ri va asosli qabul qilishi, tavsiyaviy xarakterdagi tanqidiy fikrlardan xulosalar chiqarish, tanqid qilayotgan xodimning zarur va kerakli tavsiyalariga rioya qilish;

barchaning so'z erkinligi ta'minlanganligi nuqtai nazaridan, bировga tuhmat qilish, uni haqorat qilish, o'zaro munosabatlarda behayo so'zlardan foydalanish va janjallashish, huquqini kafolatlamaydi hamda bunday xatti-harakatlar qat'iy taqiqlanadi.

5.4. Rasmiy murojaatlar rahbarga, yetakchi mutaxassisga, ta'lim beruvchi ustozga, murojaat etilayotganda belgilangan tartib asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

5.4.1. Norasmiy murojaatlarda ham asosan ishonchlilik, do'stona va samimiy munosabat ustuvor ahamiyatga ega.

5.5. Xodimlar va ta'lim jarayoni ishtirokchilari oliy ta'lim muassasasi hududida yo'lning o'ng tomonidan yurishlari kerak.

5.6. Xodimlar va ta'lim jarayoni ishtirokchilari bir-biriga duch kelganda albatta salomlashishlari, bunda, talabalar professor-o'qituvchilar va xodimlarga, erkaklar xotin-qizlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo'lib salom berishlari tavsiya etiladi. Qo'l berib so'rashish istisno bo'lib, yoshi katta shaxslar birinchi bo'lib ko'l uzatganidan keyingina unga javoban qo'l uzatish mumkin.

5.7. Milliy va umumbashariy qadriyatlarga xos bo'lmagan yoki tibbiyot ta'lim va davolash-profilaktika muassasalari ichki muammolariga taalluqli masalalarni internet tarmog'iga joylashtirish yoki undan turli maqsadlar yo'lida foydalanish taqiqlanadi.

5.7.1. Kompyuterlarda institut va davolash-profilaktika muassasalariga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy diniy ma'lumotlar, behayo suratlar, milliy, irqiy, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ'ib etish qat'iyan man etiladi.

5.8. Auditoriyada uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish, dars vaqtida gaplashmaslik, jixozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, partalarga yozmaslik, qog'oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketmaslik, ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik, umumiy ovqatlanish joylarida taomlarni olishda navbat tartibiga rioya qilish, tirbandlik holatida ustozlar, ayollar, yoshi kattalarga hurmat ko'rsatish, ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik, umumiy ovqatlanish shaxobchasida belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilinishi lozim.

5.8. Axborot resurs markazi xodimlari bilan xushmuomalada bo'lish, kitoblar va jixozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, baland ovozda so'zlashmaslik va atrofdagilarga halaqit bermaslik, qog'oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik, kitoblarni olish va topshirish tartib- qoidalariga rioya qilinishi talab qilinadi.

5.9. Talabalar turar joylarida mavjud jixozlarni asrashi, ularga zarar yetkazmaslik, elektr-energiyasi, gaz va suv resurslaridan tejamkorona (oqilona) foydalanishi, sanitariya va gigiena xonalaridan foydalanish qoidalariga amal qilishi, "Talabalar turar joyi qoidasi" va "Ichki-tartib qoidalari"ga qat'i rioya qilinishi shart.

5.10. Tashqi ko‘rinish - insonning kim va qanday ekanligi haqida dastlabki ma’lumotni beruvchi, uning turmush tarzi va xayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyati ekanligini inobatga olgan holda xodimlar va ta’lim jarayoni ishtirokchilari kiyinish madaniyatiga rioya etishi lozim.

5.10.1. Xodimlar va ta’lim jarayoni ishtirokchilari diqqatni tortadigan, ya’ni haddan tashqari tor yoki ochiq kiyimda, g‘ayri oddiy soch turmaklari bilan ortiqcha bo‘yangan holda, sport kiyimlarida kelishi taqiqlanadi.

5.10.2. Ishga va o‘qishga orasta bo‘lib kelish talab etiladi. Tanaga bodiard uslubida turli suratlar chizdirish, tatuaj tushirish va pirsinglar taqish odob-axlok qoidalariga zid hisoblanadi hamda bu holda institutga kelish man etiladi.

VI. Xodimlar va ta’lim jarayoni ishtirokchilarining kiyinishiga qo‘yiladigan talablar

6.1. Ayol xodimlar va ta’lim jarayoni ishtirokchilarining kiyinishiga oid talablar:

6.1.2. Ustki kiyimning turlari xalat yoki tibbiy maxsus kiyim oq rangli tabiiy matodan, oson va tez tozalanadigan, qulay kiyiladigan, tor bo‘lmagan, bichimi ortiqcha bezaklardan xoli, diqqatni tortmaydigan, klassik shakldagi kostyum yoki xalatdan iborat bo‘lishi muhim.

6.1.3. Kostyum, yubka va ko‘ylaklar sidirg‘a yoki chizikli klassik matolardan, bluzka esa oqish rangda bo‘lishi lozim, yubkaning uzunligi tizzadan yuqori bo‘lmasligi kerak.

6.1.4. Aksessuarlar (sumka, ko‘zoynak va bezaklar) ham korporativ uslubga mos holda tanlanishi, ortiqcha bezaklardan holi bo‘lishi, zargarlik taqinchoqlari (zirak, uzuk va boshqalar) ko‘zga yaqqol tashlanmaydigan tarzda taqilishi lozim.

6.1.5. Sochlar orasta yig‘ilgan, o‘rilgan yoki turmaklangan, ortiqcha aksessuarlardan holi bo‘lishi kerak.

6.1.6. Oq xalat va unga mos bosh kiyim toza va maxsus bo‘lishi, xalat tizzadan pastda turishi, yengi uzun (faslga qarab), klassik uslubda, chet el va turli xil firma yorliqlaridan xoli bo‘lishi lozim.

6.1.7. Oyoq kiyim yurganda ortiqcha ovoz chiqarmaydigan, qulay va oson tozalanadigan (dezenfeksiya usullaridan foydalanishga qulay) bo‘lishi zarur.

6.1.8. Qo‘llari toza, ortiqcha zeb berilmagan, tirnoqlar kalta olingan bo‘lishi kerak.

6.2. Erkak xodimlar va ta’lim jarayoni ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar:

6.2.1. Ustki kiyimning turlari bichimi klassik shakldagi kostyum, shim, ko‘ylak, galstukdan iborat bo‘lishi maqsadga muvofik.

6.2.2. Kostyum va shimlar sidirga yoki chiziqli matolardan, ko‘ylaklar esa ochiq ranglarda bo‘lishi lozim.

6.2.3. Galstukning kengligi o‘rtacha, uzunligi kamargacha bo‘lib, rangi kostyum va ko‘ylakka mos bo‘lishi lozim.

6.2.4. Oq xalat va shunga mos bosh kiyim toza, tekis, tizzadan pastda turishi, yengi uzun (faslga qarab), klassik uslubda, chet el va turli xil firma yorliqlaridan xoli bo‘lishi lozim.

6.2.5. Sochlar tartibga keltirilgan, kalta kesilgan, soqol mo'ylov olingan bo'lishi lozim.

VII. Odob-axloq qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik

7.1. Rahbar va xodimlar tomonidan Odob-axloq qoidalarining buzilishi uni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi mumkin.

7.2. Xodimlar tomonidan Odob-axloq qoidalariga rioya etilishi attestatsiyalar o'tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

7.3. Ushbu Odob-axloq qoidalari normalarining buzilishlari Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

7.3.1. Odob-axloq komissiyasi, institut xodimlaridan kamida 5 kishidan iborat tarkibda tuziladi.

7.3.2. Odob-axloq komissiyasining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va uning faoliyatini tashkil etishning boshqa masalalari Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi Nizomda belgilanadi.

7.4. Odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish natijalari bo'yicha intizomiy yoki boshqacha tarzda qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida xulosa chiqariladi. Ayni vaqtda institut rektorining ko'rib chiqishiga qoidalar buzilishini sodir etgan xodimni javobgarlikka tortish to'g'risida taklif kiritiladi. Yo'l qo'yilgan qoida buzilishining xarakterini hisobga olgan holda, Odob-axloq komissiyasi xodimga nisbatan Odob-axloq qoidalarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

7.5. Xodimlar o'zlari yo'l qo'ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek qabul qilingan qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Fargʻona jamoat salomatligi tibbiyot
institutining 2022-yil _____dagi _____
sonli buyrugʻiga 2-ilova

Fargʻona jamoat salomatligi tibbiyot institutining Odob-axloq komissiyasi toʻgʻrisidagi Nizom

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Fargʻona jamoat salomatligi tibbiyot instituti (bundan buyon matnda Institut deb yuritiladi) Odob-axloq komissiyasi (bundan buyon matnda Komissiya deb yuritiladi) faoliyatini tartibga soladi.

2. Komissiya institut huzurida tuziladigan kollegial organ boʻlib, Odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini koʻrib chiqadi.

3. Komissiya oʻz faoliyatini Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016-yil 2-martdagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini” hamda mazkur Nizom asosida amalga oshiradi.

II. Komissiyaning asosiy vazifalari va vakolatlari

4. Komissiyaning asosiy vazifalari va vakolatlari quyidagilardan iborat:

Odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini koʻrib chiqish va natijalari boʻyicha intizomiy yoki boshqacha tarzda qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) toʻgʻrisida xulosa chiqarish;

qoidalar buzilishini sodir etgan xodimni javobgarlikka tortish toʻgʻrisida institut rektori koʻrib chiqishi uchun taklif kiritish;

yoʻl qoʻyilgan qoida buzilishining xarakterini hisobga olgan holda, Komissiya institut xodimini Odob-axloq qoidalarining buzilishiga yoʻl qoʻymaslik toʻgʻrisida ogohlantirish;

xodimlarni Odob-axloq qoidalariga rioya etishi ustidan nazorat qilish;

xodimlar tomonidan xizmat mavqeini suisteʼmol qilish holatlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xodimlar tomonidan qonunchilik talablariga rioya etishlari va mehnat intizomini mustahkamlash boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

oʻz yigʻilishida Odob-axloq qoidalarini buzilishiga sababchi boʻlgan xodimning tushuntirishlarini koʻrib chiqish;

boshqa davlat tashkilotlaridan maʼlumotlar olish;

xizmat tekshiruvlarini oʻtkazish;

qonunchilikka zid boʻlmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

III. Komissiya ishini tashkil qilish

5. Komissiya tarkibi Jamoat salomatligi tibbiyot institutining ilmiy kengashi qarori bilan besh kishidan iborat tarkibda bir yil muddatga tasdiqlanadi. Komissiya prorektor, komissiya kotibi, tarkibiy bo'linma boshliqlari va yuridik maslahatchilardan iborat tarkibda shakllantiriladi.

6. Prorektor odob-axloq komissiya raisi, komissiya kotibi rais o'rinbosari hisoblanadi.

7. Komissiya ishi majlis shaklida tashkil etiladi.

komissiya majlisi komissiya a'zolarining barchasi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Komissiya majlisi rais, u bo'lmaganda rais o'rinbosari rahbarligida o'tkaziladi.

8. Komissiya o'z qarorlarini majlis ishtirokchilarining kamida 3/2 qismining ovozi bilan qabul qiladi.

9. Komissiyaning raisi, rais o'rinbosari va a'zolari o'z faoliyatlarini jamoatchilik asosida amalga oshiradilar.

10. Komissiya faoliyatiga doir ma'lumotlar sir saqlanadi va oshkor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

11. Komissiya qabul qilgan qarorlari bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.